# Xalq so'zi

O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2024-yil 8-mart, № 50 (8673) Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


# INSON QADRI, AVVALO, AYOLLARNI ULUG'LASHDAN BOSHLANADI

## Mamlakatimizda 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni keng nishonlanmoqda





Yangilanish va yasharish fasli — bahorning ilk ayyomi mo'tabar onaxonlar, aziz opa-singillarimiz bayrami sifatida keng nishonlanishi o'ziga xos ramziylikka ega. Zotan, ayolda xuddi bahor kabi yaratuvchanlik qudrati bor, u xuddi ko'klam singari inson ko'nglida yashashga, yasharishga ishtiyoq, ezgulikka rag'bat, yuksalishga g'ayrat-shijoat uyg'otadi. Ayol ham, bahor ham mo'jizakor, go'zal, tabiatiga ko'ra sirli va maftunkor.

Biri-biriga uyg'un bu ikki xilqat hayotimizning, jamiyatimizning ko'rki, fayzu tarovati sifatida ardoqlab kelinadi: qorlar erib, quyoshning zarrin nurlari borliqni erkalarkan, tuproq bag'rini yorgan ko'klamning ilk maysalarini, yalpizu binafshalarni shukronalar aytib, ko'zlarimizga surtamiz; xonadonimizda qiz farzand tug'ilarkan, avlodimiz davomchisi dunyoga kelganidan behad shodlanamiz, uni suyib-erkalab, asrab-avaylab, gard yuqtirmay ulg'aytiramiz... Umuman, ona tabiatning bebaho tuhfalari — bahorga ham, ayolga ham hurmat-ehtirom ko'rsatish xalqimizning qon-qoniga singib ketgan azaliy qadriyat.

Ayolga mehr-muhabbatimiz, go'zal tilaklarimiz, dil izhorlarimiz, ayniqsa, 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan yana bir bor dildan tilga ko'chadi, tildan yuraklarga yanada chuqur ildiz otadi. Shu bois ushbu sanaga ezgulik va nafosat ayyomi sifatida alohida e'tibor qaratamiz, uni xushnudlik bilan nishonlaymiz...

Barchamizga ana shunday ko'tarinki ruh ulashuvchi bayramning asosiy tantanalari poytaxtimizdagi Xalqaro kongress markazida bo'lib o'tdi.

➡2

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

# YANGI O'ZBEKISTONDA BUTUN XALQIMIZ QATORI XOTIN-QIZLARIMIZ UCHUN HAM MUNOSIB SHAROITLARNI YARATIB BERISH — ENG MUHIM VAZIFAMIZ BO'LIB QOLADI

## O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi

Assalomu alaykum, hayotimiz quvonchi, fayzu farishtasi bo'lgan muhtarama onaxonlar, hurmatli opa-singillar, dilbar qizlarim!

Bugun siz, azizlar bilan mana shunday tantanali anjumanda uchrashib, barchangizni, sizlarning timsolingizda butun mamlakatimiz ayollarini Xalqaro xotin-qizlar kuni bilan chin qalbdan qutlash men uchun ulkan sharaf va saodatdir.

Barcha-barchangizga samimiy mehrim va cheksiz hurmatimni izhor etishga ijozat bergaysiz.

O'zlaringiz kabi go'zal bayramingiz muborak bo'lsin!

Muhtaram vatandoshlar!

Ushbu shukuhli ayyomda hammamiz bizni dunyoga keltirgan, oq sut berib, mehr va tarbiya berib voyaga yetkazgan buyuk ona siymosiga, mo'tabar ayol zotiga ta'zim qilamiz. Zero, inson qadrini ulug'lash avvalo azizu mukarrama ayollarimizni ulug'lashdan boshlanadi.

Shu ma'noda, Mir Alisher Navoiy bobomizning, **jannat bog'idan bahramandlik istar ekansan, avvalo, munis onani rozi aylagin,** degan so'zlarini biz eng ezgu da'vat sifatida qabul qilamiz.

Biz hayotimizning ma'no-mazmuni, butun borlig'imizni siz, qadrli opa-singillarimizdan ayri holda tasavvur etolmaymiz. Sizlar biz uchun hamisha go'zallik va nazokat, mehr va sadoqat, qanoat va shukronalik timsoli bo'lib kelgansiz va doimo shunday bo'lib qolasiz. Mana shunday olijanob fazilatlaringiz bilan bizlarga hamma vaqt kuch-g'ayrat, hayotga, kelajakka ishonch bag'ishlab kelayotganingiz uchun siz, azizlarga har qancha tahsin va tasannolar aytsak, arziydi.

Hurmatli opa-singillar!

Yurtimizda mehnatkash, olijanob xalqimiz, birinchi navbatda, xotin-qizlarimiz uchun erkin, obod va farovon hayot barpo etish — davlatimiz va jamiyatimizning eng ustuvor vazifasi etib belgilangan. Jumladan, **"O'zbekiston — 2030" strategiyasi** doirasida xotin-qizlarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy faolligini oshirish, onalik va bolalikni himoya qilish, gender tenglikni qaror toptirish, ayollarning huquq va manfaatlarini ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu maqsadda, avvalo, milliy qonunchiligimiz takomillashtirilib, opa-singillarimiz uchun yanada keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Buning tasdig'ini birgina misol, ya'ni Saylov kodeksimizda deputatlikka nomzodlarning kamida 40 foizi yoki har 5 nafaridan 2 nafari ayol kishi bo'lishi zarurligi mustahkamlab qo'yilganida yaqqol ko'rish mumkin.

Bugun ushbu muhtasham zalda hurmatli deputat va senator ayollarimizni ko'rib turganimdan xursandman. Mamlakatimizda qonunchilikni mustahkamlash, qabul qilinayotgan qonunlarimizning adolatli va ta'sirchan bo'lishida ularning ham albatta hissasi katta. Buning uchun xalq vakillari bo'lgan bu ayollarimizga chin qalbdan minnatdorlik bildiramiz.

Hozirgi vaqtda xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 2017-yildagi 27 foizdan 35 foizga yetgani, ayniqsa, e'tiborlidir. Shu bilan birga, yuzlab oqila ayollar hayotimizning barcha sohalarida jonbozlik bilan faoliyat ko'rsatayotgani barchamizni quvontiradi.

Bu borada Gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi samarali ish olib borayotganini ta'kidlash lozim.

Xotin-qizlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ular o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha ham salmoqli natijalarga erishilmoqda.

So'nggi 5 yil ichida O'zbekistonda ishbilarmon ayollar safi ikki barobar kengayib, o'z biznesini yo'lga qo'ygan tadbirkor xotin-qizlar soni 205 mingdan oshdi. Birgina 2023-yilda 279 mingdan ziyod tadbirkorlik loyihalariga 13 trillion so'mdan ortiq kredit, qariyb 57 ming nafar xotin-qizga salkam 300 milliard so'm subsidiya ajratildi. Shuningdek, 200 mingga yaqin ayollar kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitildi. Eng asosiysi — 400 mingdan ortiq opa-singillarimiz ish bilan ta'minlandi.

Bundan tashqari, xotin-qizlarga ajratilgan 6 trillion so'mlik ipoteka kreditlari hisobidan 25 mingdan ziyod oilalar o'z uyiga ega bo'ldi. Bu borada 6 ming 200 nafar ayolga uy-joy sharoitini yaxshilash va kreditning boshlang'ich badalini to'lash uchun 200 milliard so'm subsidiya ajratilganini qayd etish lozim.

Shu bilan birga, joylarda xotin-qizlar muammolarini o'rganish va hal etishga qaratilgan ishlar yangi bosqichga ko'tarilmoqda. O'tgan yilning o'zida "Ayollar daftari" bo'yicha 1 trillion 234 milliard so'm hisobidan qariyb 994 ming nafar xotin-qizning muammosi hal etilgani bu fikrni tasdiqlaydi.

Bu vazifalarni bajarishda Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, Kasaba uyushmalari Federatsiyasi hamda mahallalardagi xotin-qizlar faollarining ishtiroki kuchayib borayotgani ayniqsa muhimdir. Ular tomonidan "xonadonbay" o'rganishlar natijasida ijtimoiy yordamga muhtoj 690 mingdan ziyod oilaga manzilli yordam ko'rsatilgani, 116 mingta notinch oilada muhit sog'lomlashtirilganini bugun alohida e'tirof etamiz.

Qadrli do'stlar!

Mamlakatimizda bo'lg'usi onalar, kelajak tarbiyachilari bo'lmish qizlarimiz kamolotiga, ularning oliy ta'lim olishi, zamonaviy kasb-hunar va texnologiyalar, xorijiy tillarni egallashiga katta ahamiyat berilmoqda.

Hozirgi kunda oliygohlarda ta'lim olayotgan 1 million 300 ming nafarga yaqin talabaning yarmidan ko'pi — e'tibor bering, yarmidan ko'pi, ya'ni 653 ming nafardan ziyodini qizlar tashkil etmoqda. Magistraturada o'qiyotgan yoshlarimiz orasida qizlarning ulushi yanada ko'p, ya'ni salkam 14 ming nafarni tashkil etmoqda. Bu — jami magistrantlarning qariyb 60 foizi degani.

Joriy o'quv yilida ehtiyojmand oilalarga mansub 1 ming 914 nafar xotin-qiz oliygohlarga qo'shimcha davlat granti bo'yicha o'qishga qabul qilindi. 181 ming 500 nafardan ortiq qizlarimiz uchun imtiyozli ta'lim kreditlari ajratildi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning vakillari, yetim qolgan yoki ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan 2 mingdan ziyod talaba uchun 14 milliard 500 million so'm kontrakt puli mahalliy budjetlar hisobidan qoplab berildi. So'nggi yillarda davlat oliygohlarining magistratura bo'limida o'qiyotgan xotin-qizlarning kontrakt pullari budjetdan to'lanmoqda.

Eng muhimi, qizlarimiz o'rtasida zamonaviy bilim va kasb-hunarlarga qiziqish tobora ortib bormoqda. Masalan, "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida ta'lim olgan yoshlarning 47 foizi, ya'ni qariyb yarmini qizlar tashkil etgan.

Keyingi paytda yurtimizda ilm-fan va ta'lim, xususan, oliy ta'lim sohasi isloh etilib, jahon standartlariga moslashtirilayotgani sababli xotin-qizlar bu yo'nalishda ham katta natijalarga erishmoqdalar. Buning amaliy ifodasini so'nggi yetti yilda 5 ming 247 nafar ayollarimiz fan doktori (DSc) va o'z sohalari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olgani misolida ko'rish mumkin. Birgina 2023-yilning o'zida 147 nafar xotin-qiz fan doktori, 1 ming 238 nafari esa falsafa doktori ilmiy darajasiga erishgani barchamizni mamnun etadi.

➡2

# MAHALLALARDA AHOLI DAROMADINI OSHIRISH MASALALARI KO'RIB CHIQILDI

## Prezident Shavkat Mirziyoyev 7-mart kuni mahallalarda aholi daromadini oshirish va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.

Mamlakatimizda ishsizlikni kamaytirish maqsadida ko'plab iqtisodiy dasturlar amalga oshirilmoqda. Kichik biznes va tadbirkorlik qo'llab-quvvatlanib, hududlarda korxonalar ochilmoqda. Professional ta'lim muassasalari va "Ishga marhamat" monomarkazlarida aholiga zamonaviy kasb-hunarlar hamda xorijiy tillar o'rgatilmoqda.

Bu yil 5 million aholining bandligini ta'minlash, 2 million kishini tadbirkorlikka jalb etish maqsad qilingan. Buning uchun davlat tomonidan barcha tashkiliy va moliyaviy imkoniyatlar yaratilgan.

Xususan, bu maqsadlarga 16 trillion so'm ajratildi. Shuningdek, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Mahallabay ishlash agentligi, Fermerlar kengashi jamg'armalari tomonidan 1,4 trillion so'm yo'naltiriladi.

Endi asosiy vazifa bu imkoniyatlarni joylarda samarali ishlatib, aholiga daromad manbai yaratib berishdir.

Prezident topshirig'iga muvofiq, Jizzax viloyatining G'allaorol va Sharof Rashidov tumanlari misolida bu borada tez natija beradigan yangi mexanizmlar ishlab chiqilmoqda. Kelgusida bu tizim barcha hududlarda joriy etiladi.

Yig'ilishda Bosh vazir o'rinbosari — iqtisodiyot va moliya vaziri J. Qo'chqorov mazkur tumanlardagi yangi imkoniyatlar va ularni ishga solish bo'yicha takliflarni bayon etdi.

Unga ko'ra, har bir mahallaga iqtisodiy kompleks tashkilotlari rahbarlari biriktiriladi. Ular o'zi mas'ul bo'lgan mahalladagi kambag'al oilalar bilan manzilli ishlab, odamlarning daromadini oshirishga ko'maklashadi. Arzon kreditlar, subsidiya va imtiyozli resurslar, eng avvalo, aholini kambag'allikdan chiqarishga yo'naltiriladi. Yashirin biznes qonuniylashtirilib, rasmiy ish o'rni ko'paytiriladi.

Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi ham, mahallaga mas'ullar bilan birga, aholi xonadonlarida serdaromad ekin ekishni tashkil qiladi.

Yangi uskunalar va bozor talablarini mahallalarga yetkazish orqali aholiga daromadni oshirishni o'rgatish zarurligi ta'kidlandi.

Yig'ilishda vazirlar va hokimlarning ham fikrlari eshitildi. Viloyat hokimlariga rivojlanishdan orqada qolayotgan tumanlarda shu kabi ishlarni tashkil etib, namuna qilish, har bir mahalla kesimida ishsizlikni kamaytirish choralarini ko'rish topshirildi.

**O'zA.**

**Zurab POLOLIKASHVILI:**

# O'ZBEKISTON BARQAROR VA XAVFSIZ TURIZM INDUSTRIYASINI RIVOJLANTIRISHGA INTILMOQDA

*Butunjahon turizm tashkiloti (YUNVTO) bosh kotibi "Dunyo" AA uchun eksklyuziv intervyusida O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi tomonidan bir ovozdan ma'qullangan "2027-yil — Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yili" rezolyutsiyasining jahon hamjamiyati uchun ahamiyati haqidagi fikrlarini bildirdi.*



## Bizning intervyu

***— O'zbekiston tashabbusining global miqyosdagi ahamiyatini belgilovchi uchta asosiy omil nima deb o'ylaysiz? Va bu rezolyutsiya O'zbekiston uchun qanchalik muhim?***

— 2027-yilning "Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yili" deb e'lon qilinishi sayyoramizni xavfsiz, mustahkam tinchlik va barcha uchun farovonlik makoniga aylantirish yo'lida sayyohlik sektori yangi imkoniyatlarni o'rganish va amalga oshirish uchun noyob imkoniyat yaratadi. O'zbekistonning mazkur rezolyutsiya tashabbusi bilan chiqishi mamlakatning barqaror va xavfsiz turizm industriyasini rivojlantirishga qat'iy intilishidan dalolat beradi. Bu turizmni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, uning iqtisodiy farovonlik, ijtimoiy inklyuzivlik, tinchlik va barqarorlik, madaniy merosni, biologik xilmaxillikni saqlash va atrof-muhitni muhofaza qilishga qo'shayotgan ulkan hissasini oshirish yo'lidagi muhim qadamdir.

Xalqaro yil barqarorlikni ta'minlash va mustahkamlashning hayotiy muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi. Ushbu tamoyillar BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2022-yil dekabr oyida qabul qilingan "Kambag'allikni bartaraf etish va atrof-muhitni muhofaza qilish uchun barqaror va yashovchan turizmni, shu jumladan, ekoturizmni rivojlantirish" rezolyutsiyasida ham mustahkamlangan. U YUNVTO hisobotiga asoslanib, birinchi marta COVID-19 pandemiyasining butun dunyo bo'ylab millionlab odamlar uchun daromad manbai bo'lgan turizmga nisbatan misli ko'rilmagan muammolar sharoitida barqarorlikni eng ustuvor vazifa sifatida belgiladi.

➡3

# YANGI O‘ZBEKISTONDA BUTUN XALQIMIZ QATORI XOTIN-QIZLARIMIZ UCHUN HAM MUNOSIB SHAROITLARNI YARATIB BERISH — ENG MUHIM VAZIFAMIZ BO‘LIB QOLADI

## O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi

←1

Hozirgi kunda ilm-fan sohasida jami 5 mingga yaqin olima ayollarimiz faoliyat ko‘rsatmoqda. Oliygohlarda esa 14 mingdan ziyod opa-singillarimiz pedagogika va ilmiy tadqiqot yo‘nalishida ish olib bormoqda.

Bu raqamlar nimadan dalolat beradi?

Bu, avvalo, qizlarimiz, opa-singillarimizning intellektual salohiyati naqadar balandligidan, agar tegishli sharoit va imkoniyat yaratib bersak, ular har qanday yuksak marrani zabt etishga qodirligidan dalolat beradi.

Albatta, oila yumushlari, farzand tarbiyasi bilan birga, turli soha va tarmoqlarda fidokorona xizmat qilayotgan opa-singillarimizning mehnatini munosib qadrlash doimo davlatimiz e’tiborida bo‘lib kelmoqda.

Mustaqillik yillarida 17 nafar hurmatli ayollarimiz “O‘zbekiston Qahramoni” degan oliy unvonga sazovor bo‘lgan bo‘lsa, ularning 7 nafari fan, ta’lim va san’at sohasi vakillari ekanini alohida ta’kidlash lozim. 11 nafar ayol fan sohasidagi eng yuksak darajaga, ya’ni akademik unvoniga sazovor bo‘lgani, minglab xotin-qizlarimiz davlatimizning faxriy unvon, orden va medallari bilan taqdirlanib kelayotgani el-yurtimizning ularga nisbatan yuksak ehtiromi ifodasidir.

Aziz vatandoshlar!

Hammamizga ma’lumki, bugun dunyoda murakkab va og‘ir vaziyat, iqtisodiy inqiroz hukm surmoqda. Tabiiyki, bu holat mamlakatimizga ham o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Bunday sharoitda ijtimoiy sohalar uchun budjetdan mablag‘ ajratish albatta oson bo‘layotgani yo‘q. Lekin, qanchalik qiyin bo‘lmasin, biz qo‘shimcha imkoniyat topib, ijtimoiy sohalarni rivojlantirish, xotin-qizlarimizning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishlari uchun sharoit yaratmoqdamiz va bu ishlarimiz albatta davom etadi. Chunki ayollarning, xususan, **qiz bolaning o‘qib, oliy ma’lumotli bo‘lishi, kasb-hunar egallashi oila baxti, farzandlar kamoli uchun, shu asosda butun jamiyat ravnaqi uchun xizmat qiladi.**

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Opa-singillarimiz salomatligi, onalik va bolalikni muhofaza qilish, xalqimiz genofondini mustahkamlash inson qadrini ulug‘lashning o‘zak masalasidir. Shu maqsadda 2023-yili 6 million 500 ming nafardan ziyod ayollar tibbiy tekshiruvdan o‘tkazilib, ularga zarur maslahat va amaliy yordam ko‘rsatildi.

Bu kabi ezgu ishlarimizning davomi sifatida Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili davlat dasturi doirasida xotin-qizlarning sog‘lig‘ini mustahkamlash, ularning bandligini ta’minlash, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish vazifalari alohida belgilab qo‘yildi.

Bu borada mamlakatimizda ayollar tadbirkorligini yangi bosqichga ko‘tarish, ularning bandligiga ko‘maklashish maqsadida, Senat Raisi T. Norboyeva boshchiligida maxsus komissiya tashkil etiladi. Ushbu komissiya kelgusi yil 8-martga qadar har bir hududda “favqulodda holat” rejimida ishlab, xotin-qizlarni kasb-hunarga o‘qitish, bandligini ta’minlash va tadbirkorlikka jalb etish bo‘yicha ishlarni mutlaqo yangicha yondashuvlar va tizim asosida tashkil qiladi.

Mazkur komissiyada Xalq banki raisining o‘rinbosari G. Rashidova xotin-qizlarning biznes g‘oyalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun mas’ul bo‘ladi. Shuningdek, Savdo-sanoat palatasi, “Biznesni rivojlantirish banki” va “Mikrokreditbank”da ham ayollar tadbirkorligiga ko‘maklashish bo‘yicha alohida rais o‘rinbosarlari ish boshlaydi. Ana shu rahbarlar har bir viloyat, har bir tuman, har bir mahallada yangi biznes g‘oyalariga ega xotin-qizlarni aniqlash, ularning tashabbuslarini ro‘yobga chiqarish, loyihalarini sifatli ishlab chiqish va amalga oshirishga har tomonlama ko‘mak beradilar.

Viloyat, tuman, shahar hokimlari, hokimlarning xotin-qizlar masalalari bo‘yicha o‘rinbosarlari hamda faol ayollar komissiya bilan birgalikda joriy yilda 9 ming 442 ta mahalladagi 580 ming nafarga yaqin ishsiz ayollarning bandligini ta’minlash uchun mas’ul etib belgilanadi.

Bu borada mahallalarda oilaviy tadbirkorlik uchun kreditlarning kamida 40 foizi ayollar taklif etgan loyihalarga yo‘naltiriladi. Shu maqsadda har bir hududda xotin-qizlar uchun hunarmandchilik, tadbirkorlik markazlari va klasterlari tashkil etiladi. Ushbu maskanlarda 205 ming nafar opa-singillarimiz mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblarga tayyorlanadi hamda tadbirkorlik asoslariga o‘rgatiladi.

Shuningdek, “Yoshlar daftari”ga kiritilgan 8 ming nafar xotin-qizga o‘z biznesini boshlashi va mehnat qurollarini xarid qilishi uchun subsidiya, 10 ming nafariga esa imtiyozli kreditlar ajratiladi. 50 ming nafar yosh ayollar uchun malakali mutaxassislar ishtirokida “Biznes marafon” loyihasi tashkil etiladi. Ushbu loyiha doirasida yuzlab qobiliyatli qizlarimizga o‘z biznesini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha amaliy yordam beriladi.

Umuman, bir oy muddatda xotin-qizlarni tadbirkorlikka keng jalb qilish bo‘yicha alohida dastur qabul qilinib, loyihalarni amalga oshirish uchun 15 trillion so‘m, jumladan, oilaviy tadbirkorlik loyihalariga 6 trillion so‘m ajratiladi. Bundan tashqari, Saudiya Arabistoni, Qatar, Yaponiya, Janubiy Koreya va Germaniyadagi elchilarimiz ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun 100 million dollarlik grantlarni jalb qiladi.

Sog‘liqni saqlash sohasida ham bir qator muhim tadbirlar amalga oshiriladi. Jumladan, murakkab jarrohlik operatsiyasi o‘tkazishga muhtoj 2 ming nafar xotin-qiz Davlat budjeti va xalqaro moliya institutlari mablag‘lari hisobidan davolanadi.

Shu bilan birga, 1 million nafar homilador ayol hamda 1 million 500 ming nafar emizikli ona yod preparati, qariyb 6 million nafar reproduktiv yoshdagi ayollar temir va foliy kislotasi bilan bepul ta’minlanadi.

Og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan 4 ming nafar xotin-qizlarga uy-joy ajratiladi. Shu toifadagi 3 ming nafar ayol uchun murakkab tibbiy operatsiyalar bepul o‘tkaziladi.

Yurtimizda “Qizlar akademiyasi” platformasi yaratilib, 100 ming nafar opa-singillarimizga moliyaviy, huquqiy, psixologik, reproduktiv bilim berish yo‘lga qo‘yiladi.

Bunday amaliy ishlarimiz ro‘yxatini yana davom ettirish mumkin.

Qadrli anjuman ishtirokchilari!

Yaqinda O‘zbekiston mahallalari uyushmasi va uning hududiy tuzilmalari tashkil etilganidan xabaringiz bor. Bu esa aholining, birinchi navbatda, xotin-qizlarimiz muammolarini hal etish bo‘yicha yangi imkoniyatlar ochib bermoqda.

Ayniqsa, “mahalla yettiligi” tarkibidagi xotin-qizlar faollaridan biz katta natijalarni kutib qolamiz. Opa-singillarimizning og‘irini yengil qilish, muammolariga yechim topish, kerak bo‘lsa, oilaviy masalalarda ayollarimizning yaqin sirdoshiga aylanish ular uchun birinchi darajali vazifa bo‘lishi lozim.

Dunyoda o‘xshashi bo‘lmagan bunday tizimni joriy etishdan maqsad ham xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini quyi bo‘g‘indan boshlab samarali himoya qilish ekanini siz, azizlar albatta yaxshi tushunasiz. Bu, o‘z navbatida, O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati qurish yo‘lida tashlangan yangi bir amaliy qadam, desak, to‘g‘ri bo‘ladi.

Aziz yurtdoshlar!

Vatanni sevish, unga sadoqat bilan xizmat qilish, el-yurt uchun munosib farzandlar tarbiyalash — bu dunyodagi eng ulug‘ va sharafli ishdir. Mehribon va oqila, jonkuyar ayollarimiz bu borada hamisha fidoyilik ko‘rsatib kelmoqdalar.

Ma’lumki, har yili aholimiz soni qariyb 900 ming nafarga ko‘paymoqda. Joriy o‘quv yilida 733 ming nafar farzandlarimiz birinchi sinfga qadam qo‘ydi. Ertaga hayotimizga qudratli to‘lqin bo‘lib kirib keladigan ana shunday navqiron avlodimiz timsolida biz Yangi O‘zbekiston bunyodkorlarini ko‘ramiz.

Shu bois o‘g‘il-qizlarimizni jismoniy va ma’naviy barkamol etib tarbiyalash, ularni milliy g‘urur, Vatanga muhabbat, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida voyaga yetkazish barchamizning asosiy burchimizga aylanishi zarur.

Bugungi tahlikali zamonda jahon miqyosida kuchayib borayotgan radikalizm, ekstremizm, terrorizm, odam savdosi, giyohvandlik, hayotga yengil-yelpi, iste’molchilik kayfiyati bilan qarash kabi xatarlardan yoshlarimizni himoya qilish o‘ta dolzarb masalaga aylanmoqda.

Fursatdan foydalanib, yurtimizdagi barcha ayollarga murojaat qilmoqchiman.

**Aziz opa-singillar, oilada farzand tarbiyasiga e’tiborni kuchaytiraylik, bog‘cha, maktab va oliygohlarga kirib boraylik.**

**O‘qituvchi va murabbiylar bilan ko‘proq muloqot qilib, farzand va nabiralarimizning o‘qishi, davomati masalasi, axloq-odobi bilan qiziqaylik.**

**Bolalarimizni bilimli va aqlli, oqni qoradan ajrata oladigan, el-yurtimizga sodiq, hayoli va iboli, mustahkam irodali insonlar etib tarbiyalash uchun barchamiz birgalikda harakat qilaylik.**

Biz ma’naviy tarbiya ishlarini endi mutlaqo yangicha usulda olib borishimiz kerak. **“Ezgulik — shiorimiz, ma’rifat — qurolimiz”** degan g‘oya asosida bu jarayonni avvalo oiladan, mahalladan boshlashimiz lozim.

Zotan, hadisi sharifda aytilganidek, **“Ota-ona o‘z farzandiga yaxshi tarbiyadan boshqa meros qoldirolmaydi”**.

Muhtarama opa-singillarimiz, duogo‘y onaxonlarimizning mas’uliyati — aynan ana shu masalalarda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Chindan ham, jondan aziz bolalarimiz hamma havas qiladigan ta’lim va tarbiya olsa, bilasizlarmi, jamiyatimiz, hayotimiz qanday o‘zgaradi?

Hal qiluvchi ahamiyatga ega bu vazifani ado etishda biz avvalo siz, azizlarga ishonamiz va tayanamiz.

Qadrli do‘stlar!

Mamlakatimizda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha to‘plangan milliy tajriba xalqaro miqyosda keng e’tirof etilmoqda. Jahon bankining kuni kecha e’lon qilingan indeksida O‘zbekiston gender tenglik sohasida dunyodagi **eng tez rivojlanayotgan 5 ta mamlakat** qatorida qayd etildi.

“Ayollar, biznes va qonun” deb nomlangan ushbu yillik hisobotda dunyoning 190 ta davlatidagi holat 10 ta ko‘rsatkich bo‘yicha baholab boriladi. Yangi indeksda mamlakatimizda mehnat munosabatlari va oiladagi zo‘ravonlikka qarshi kurash sohasida amalga oshirilgan islohotlar muvaffaqiyatli deb topilgan. O‘zbekiston bu borada yaxshi natijaga erishgani e’tirof etilgan.

O‘tgan yili Toshkent va Samarqand shaharlarida o‘tkazilgan nufuzli xalqaro xotin-qizlar forumlarida ham mustaqil tahlilchi va ekspertlar tomonidan ayni shu jihatlarga alohida e’tibor qaratilgani bejiz emas.

Bularning barchasi albatta biz birgalikda qo‘lga kiritgan katta yutuq bo‘lib, bu ishlarimizni yangi bosqichga ko‘tarishimiz lozim.

Joriy yilda mamlakatimiz yana bir yirik anjuman — **Osiyo xotin-qizlar forumiga** mezbonlik qiladi. Mazkur anjuman “Birlashgan Millatlar Tashkiloti — Xotin-qizlar” tuzilmasi bilan hamkorlikda tashkil etiladi.

Bu forum gender siyosati, xotin-qizlarning davlat va jamiyat boshqaruvi, iqtisodiyotdagi ishtirokini yanada kengaytirish bo‘yicha samarali muloqot maydoni bo‘ladi, deb ishonamiz.

Fursatdan foydalanib, bugungi tantanamizda ishtirok etayotgan xorijiy davlatlarning hurmatli elchilari va xalqaro tashkilotlar vakilalarini ham samimiy qutlaymiz. Ularning mamlakatlari va xalqlariga chin dildan tinchlik, ravnaq va farovonlik tilaymiz.

Hurmatli do‘stlar!

Xabaringiz bor, har yili 8-mart ayyomida turli sohalardagi dastlabki yutuqlari uchun buyuk o‘zbek shoirasi — Zulfiyaxonim nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan iste’dodli qizlarimizni muborakbod etamiz.

Bugungi bayram tadbirimiz ana shu qizlarimiz, ularning ota-onalari, ustozlari uchun, o‘ylaymanki, unutilmas tarixiy voqea bo‘lib qoladi.

Siz, aziz farzandlarimni yuksak mukofot bilan o‘z nomimdan, xalqimiz nomidan samimiy tabriklayman. Bunday ulkan e’tirofni kelajakda katta-katta yutuqlar bilan albatta oqlaysizlar, deb ishonaman.

Ayni vaqtda bugungi bayram arafasida mehnat va jamoatchilik faoliyatida muhim natijalarga erishgan, yosh avlod tarbiyasiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan hurmatli ayollarimizdan katta bir guruhi davlatimizning yuksak orden va medallari bilan taqdirlandilar.

Barchamiz ularni chin qalbdan qutlab, kelgusi ishlariga yangi muvaffaqiyat va omadlar tilaymiz.

Muhtarama opa-singillar!

Siz, azizlarni bugungi bahor va nafosat bayrami bilan yana bir bor tabriklayman.

Barchangizga sihat-salomatlik, xonadonlaringizga tinchlik-omonlik, fayzu baraka tilayman.

Har biringizga hamisha oilangiz, farzandu nabiralaringiz, el-yurtimiz ardog‘ida bo‘lish nasib etsin!

Katta rahmat sizlarga!

# INSON QADRI, AVVALO, AYOLLARNI ULUG‘LASHDAN BOSHLANADI



←1

Muhtasham zal nozik xilqat vakillarining suvratu siyratiga monand yuksak did va nafosat bilan bezatilgan. Bu yerga yig‘ilgan yurtimizning turli hududlaridan kelgan mehmonlar, davlat va jamoat arboblari, senator hamda deputatlar, ziyolilar, turli sohalar namoyandalari, ilg‘or yoshlar — hammaning yuz-ko‘zida cheksiz quvonch, mamnuniyat, nur balqiydi.

Tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etib, mamlakatimiz ayollariga tabrik yo‘lladi.

Davlatimiz rahbari nutqida ta’kidlaganidek, **ushbu shukuhli ayyomda hammamiz bizni dunyoga keltirgan, oq sut berib, mehr va tarbiya berib voyaga yetkazgan buyuk ona siymosiga, mo‘tabar ayol zotiga ta’zim qilamiz. Zero, inson qadrini ulug‘lash avvalo azizu mukarrama ayollarimizni ulug‘lashdan boshlanadi.**

Mana shu ulug‘vor, umuminsoniy yondashuv yangilanayotgan O‘zbekistonda bugun davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Barcha sohada bo‘lgani kabi xotin-qizlarga, ularning taqdiriga munosabat tubdan o‘zgardi. Ularni qadrlash, ijtimoiy faolligini oshirish, hayotda o‘z o‘rnini topishi, o‘zligi va iqtidorini namoyon etishi uchun hamma shart-sharoit muhayyo qilingan.

Bugun xotin-qizlar qayerda bo‘lmasin, qaysi sohada ishlamasin, to‘la emin-erkin ekanini, barcha huquq va manfaatlari qonunlar bilan himoyalanganini teran his qiladi. Bu bejiz emas. Chunki mamlakatimizda bu borada barcha huquqiy asoslar yaratilgan. Jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengligi kafolatlangan. Xususan, 58-moddaga muvofiq, xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlaydi.

Shu bilan birga, ayni yo‘nalishda qator xalqaro hujjatlar ratifikatsiya qilindiki, bu xotin-qizlarga munosabat masalasida butun dunyo bilan hamqadam, hamnafas ilgarilayotganimiz ifodasidir.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida xotin-qizlarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy faolligini oshirish, onalik va bolalikni himoya qilish, gender tenglikni qaror toptirish, ayollarning huquq va manfaatlarini ta’minlash, salomatligini mustahkamlash bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bugun barcha soha va tarmoqlarda nozik jins vakillarining yaratuvchanlik mehnati hayotimizga zeb bermoqda. Ular davlat boshqaruvi, qonun ijodkorligi, fan, ta’lim-tarbiya, tadbirkorlik, tibbiyot, yengil sanoat, mashinasozlik, turizm, mahalla tizimi, umuman, barcha jabhada erkaklar bilan teng huquq va sharoitda mamlakatimiz taraqqiyotiga, turmushimiz farovonligiga katta hissa qo‘shmoqda.

Ajdodlarimiz xotin-qizlarni o‘qitish, ularning ma’naviy dunyosini boyitishni hayot-mamot masalasi, deb bilgan. Mustabid tuzum qatag‘on qilichini qayrab, Vatan degan, millat uchun qayg‘urgan har qanday insonga ayovsiz hukmini o‘qiyotgan og‘ir davrda ham jadid bobolarimiz o‘nlab xotin-qizlarni o‘sha davrda rivojlangan Germaniya, Turkiya kabi davlatlarga ta’lim olishga yuborgani so‘zimizga bir isbot.

Yangi O‘zbekistonda bugun xotin-qizlar ta’limini yanada yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlar ajdodlarimizning orzu-istaklariga, ish tutumiga g‘oyat hamohangligidan dalolat.

Mamlakatimizda qizlarga keng imkoniyatlar yaratish maqsadida oliy ta’lim olishi uchun alohida kvotalar ajratilmoqda, shartnoma pullarini mahalliy budjetdan qoplab berish tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning vakillari, yetim qolgan yoki ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan talabalarni rag‘batlantirishga jiddiy urg‘u berilyapti. Bu kabi qulayliklar o‘z mevasini beryapti. Hozirgi kunda oliygohlarda ta’lim olayotgan 1 million 300 ming nafarga yaqin talabalarning yarmidan ko‘pi aynan qizlar ekani kishini quvontiradi.

Prezidentimiz tashabbusiga ko‘ra, ilmiy tadqiqot bilan shug‘ullanaman degan har bir xotin-qiz to‘liq qo‘llab-quvvatlanmoqda. Jumladan, davlat oliygohlarining magistratura bo‘limida o‘qiyotgan xotin-qizlarning shartnoma pullari budjetdan to‘lanmoqda. Ilm-fan bilan mashg‘ul olimalar ham har tomonlama rag‘batlantirilyapti.

Bugun butun dunyoda kuzatilayotgan notinchlik, iqtisodiy buhronlarga qaramay mamlakatimizda bu boradagi ishlar izchil davom ettiriladi. Zotan, Prezidentimiz urg‘ulaganidek, **ayollarning, xususan, qiz bolaning o‘qib, oliy ma’lumotli bo‘lishi, kasb-hunar egallashi oila baxti, farzandlar kamoli uchun, shu asosda butun jamiyat ravnaqi uchun xizmat qiladi.**

Ayollarni ijtimoiy himoya qilish, bandligini ta’minlash, jamiyatda o‘z o‘rnini topishi uchun keng ko‘lamli choralar ko‘rilyapti. O‘tgan yilning o‘zida “ayollar daftari” bo‘yicha 1 trillion 234 milliard so‘m hisobidan qariyb 994 ming nafar xotin-qizlarning muammosi hal etilgani bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi. Bu vazifalarni bajarishda Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, Kasaba uyushmalari Federatsiyasi hamda mahallalardagi xotin-qizlar faollarining ishtiroki kuchayib borayotgani, ayniqsa, muhimdir. Ular tomonidan xonadonbay o‘rganishlar natijasida ijtimoiy yordamga muhtoj 690 mingdan ziyod oilalarga manzilli yordam ko‘rsatilgani, 116 mingta notinch oilada muhit sog‘lomlashtirilgani yuksak e’tirofga loyiq.

Yaqinda O‘zbekiston mahallalari uyushmasi va uning hududiy tuzilmalari tashkil etildi. Bu aholi, birinchi navbatda, xotin-qizlar muammolarini hal qilish bo‘yicha yangi imkoniyatlar ochib bermoqda.

Davlatimiz rahbari “mahalla yettiligi” tarkibidagi xotin-qizlar faollari opa-singillarimizning og‘irini yengil qilish, muammolariga yechim topish, kerak bo‘lsa, oilaviy masalalarda ayollarimizning yaqin sirdoshiga aylanishi lozimligini qayd etdi. Binobarin, dunyoda o‘xshashi bo‘lmagan bunday tizimni joriy qilishdan maqsad ham xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini quyi bo‘g‘indan boshlab samarali himoya qilishdir. Bu, o‘z navbatida, O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati qurish yo‘lida tashlangan yangi bir amaliy qadam, desak, ayni haqiqat.

O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov bir she’rida *“Ayol chehrasida ko‘rsang tabassum, Bilki, zamona tinch, osoyish olam, Ayolga tilasang gar tole mas’um, Dunyoni olovdan asra, ey, Odam!”* deya kuyungandi.

Shukrki, ayollarimiz yuz-ko‘zidan mamnunlik, kulgi-tabassum arigani yo‘q. Bu saodat yurtimizdagi tinchlik-xotirjamlik, osoyishtalik nishonasidir. Biroq bugun dunyoning turli nuqtalarida hali tanklarning vahimali ovozi, bombalarning gumbur-gumburi tingani yo‘q. Bunday talato‘plar, beomon olovlardan, asosan, mushtipar onalar, ma’suma xotin-qizlar, beg‘ubor bolajonlar ozor chekayotgani alamli.

Barcha xunrezlik, qonxo‘rlik, inson qadri va yashash huquqining toptalishi, turli jinoyatlarning ildizi ularni sodir etayotganlarning vaqtida to‘g‘ri tarbiya ko‘rmagani, qalbu ongini jaholat, ma’rifatsizlik egallab olganiga borib taqaladi.

Bugungi tahlikali zamonda jahon miqyosida kuchayib borayotgan radikalizm, ekstremizm, terrorizm, odam savdosi, giyohvandlik, hayotga yengil-yelpi, iste’molchilik kayfiyati bilan qarash kabi xatarlardan yoshlarimizni himoya qilish o‘ta dolzarb masalaga aylanmoqda.

Inson kamolotida oila, ayniqsa, onalarning o‘rni, ta’siri beqiyos ekani hisobga olinsa, bugun volidai muhtaramalar zimmasida ulkan mas’uliyat turganini anglash mumkin.

Shu bois davlatimiz rahbari yurtimizdagi barcha ayollarga murojaat qildi. Aziz opa-singillarni oilada farzand tarbiyasiga e’tiborni kuchaytirishga, bog‘cha, maktab va oliygohlarga kirib borishga, o‘qituvchi hamda murabbiylar bilan ko‘proq muloqot qilib, farzand va nabiralarimizning o‘qishi, davomati masalasi, axloq-odobi bilan qiziqishga da’vat etdi. Bolalarimizni bilimli va aqlli, oqni qoradan ajrata oladigan, el-yurtimizga sodiq, hayoli va iboli, mustahkam irodali insonlar etib tarbiyalash uchun barchani birgalikda harakat qilishga undadi.

Endilikda ma’naviy tarbiya ishlari mutlaqo yangicha usulda olib boriladi. **“Ezgulik — shiorimiz, ma’rifat — qurolimiz”** degan g‘oya asosida bu jarayon, avvalo, oiladan, mahalladan boshlanadi. Muhtarama opa-singillarimiz, duogo‘y onaxonlarimizning mas’uliyati — aynan ana shu masalalarda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda xotin-qizlar masalasida amalga oshirilayotgan ishlarga dunyo jamoatchiligi, soha ekspert va mutaxassislari, xalqaro tashkilotlar vakillari yuksak baho bermoqda. Xususan, yaqinda Jahon banki o‘zining “Ayollar, biznes va qonun” yillik hisobotini e’lon qildi. Unga ko‘ra, mamlakatimiz huquqiy jihatdan gender tengligi taraqqiyoti bo‘yicha 190 ta davlat ichida eng kuchli beshtalikka kirdi. Hisobotda keltirilishicha, O‘zbekistonda 2022-yilning oktabr oyidan buyon xotin-qizlarning mavqeini yaxshilashga xizmat qiluvchi to‘rtta huquqiy islohot amalga oshirilgan. Bu esa mamlakatimizning 82,5 ball bilan dunyo reytingida yuqori pog‘onalarni egallashiga asosiy omil bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari O‘zbekistonda bu boradagi ishlar izchil davom etishini ta’kidladi. Chunonchi, joriy yilda mamlakatimiz yana bir yirik anjuman — Osiyo xotin-qizlar forumiga mezbonlik qiladi. Mazkur anjuman “Birlashgan Millatlar Tashkiloti — Xotin-qizlar” tuzilmasi bilan hamkorlikda tashkil etiladi. Bu forum gender siyosati, xotin-qizlarning davlat va jamiyat boshqaruvi, iqtisodiyotdagi ishtirokini yanada kengaytirish bo‘yicha samarali muloqot maydoni bo‘ladi.

Prezidentimiz bayram tadbirida qatnashayotgan xorijiy davlatlarning elchilari va xalqaro tashkilotlar vakilalarini ham samimiy qutladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 4-martdagi qaroriga binoan 28 nafar qiz Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan, 5-martdagi Farmonga muvofiq turli sohalarda faol bo‘lgan ayollar orden va medallar bilan taqdirlangan edi. Tadbirda ana shu yuksak mukofotlar tantanali ravishda topshirildi.

Dilbar kuy-qo‘shiqlar ishtirokchilarning bayram kayfiyatini yanada ko‘tardi.

**Dilshod KARIMOV**
**(“Xalq so‘zi”).**

Hasan PAYDOYEV olgan surat.

# QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASH — ISLOHOTLARNING ASOSIY YO'NALISHI

*Oldimizga ulkan maqsad va marralarni qo'yganmiz. Navbatdagi qadamda esa "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturidagi vazifalarni izchillik bilan amalga oshirishimiz talab etiladi.*

## Munosabat

Avvalo, ushbu dastur jamiyat va xalq manfaatlarini ko'zlagan holda, davlatning bugungi siyosatini yanada kuchaytirish tamoyili asosida ishlab chiqilganligini ta'kidlash zarur. U 5 ta asosiy yo'nalishdan iborat bo'lib, 100 ta maqsadni o'zida mujassamlagan.

Davlat dasturida inson huquq va erkinliklarini kafolatlash, davlat organlarining aholiga xizmat ko'rsatishini yanada takomillashtirish, sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlash va korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokini kengaytirish bilan bog'liq bir qator dolzarb maqsad va vazifalar ham jamlangan bo'lib, ular ijrosi bizni ko'zlanayotgan marralarga yanada yaqinlashtiradi.

Ahamiyatlisi, ushbu dasturning barcha yo'nalishi har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoit yaratishni ta'minlashga qaratilganidir.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasining qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish yo'nalishi bo'yicha 2024-yilga mo'ljallangan amaliy vazifalar ham aniq belgilab berilgan.

Mazkur yo'nalishda aholi farovonligini ta'minlash va hududlarda kundalik masalalarni hal etishda mahallani jamoatchilik hamda davlat organlari o'rtasidagi "tayanch ko'prik"ka aylantirish g'oyasi bosh mezon qilib olinyapti. Bu jarayonda mahalla faoliyatini to'lig'icha raqamlashtirish ko'zda tutilayotgani ham e'tiborga molik. "Temir daftar", "yoshlar daftari" va "ayollar daftari" platformalari, Personallashtirish, Ijtimoiy himoya, Kadastr agentliklari, Soliq qo'mitasi hamda tegishli vazirliklar bazalari yangi tuzilajak mahallaning yagona platformasi bilan integratsiya qilinadi. Natijada platformada mahalla aholisi uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumot joylashtirilib boriladi. Ayni chog'da "Mahalla balansi" ham shakllantiriladi.

**Bu yagona elektron platforma orqali quyidagi maqsadlar ko'zlanmoqda:**

- *uyma-uy yurish orqali aholining muammolarini o'rganayotgan xotin-qizlar faollari, yoshlar yetakchilari hamda hokim yordamchilari tomonidan yig'ilgan mahalla aholisi balansi shakllantiriladi;*
- *mahalla aholisiga ko'rsatilishi mumkin bo'lgan ijtimoiy yordamlar va shu yordamlardan foydalangan shaxslar hamda yordam turlari kesimidagi ma'lumotlar kiritiladi;*
- *mahalla faollari (rais, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektori) faoliyati samaradorligi baholanadi;*
- *kasbga o'qitilgan hamda tadbirkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida subsidiya, grant va kredit mablag'lari olgan shaxslar va ularning keyingi faoliyati monitoringi natijalari kuzatib boriladi;*
- *Yagona milliy mehnat tizimi asosida ish beruvchi va ish izlovchilar o'rtasida muloqot yo'lga qo'yiladi;*
- *"temir daftar", "yoshlar daftari" va "ayollar daftari" platformalari o'zaro integratsiya qilinadi;*
- *"Xorijdagi yoshlar balansi"ni shakllantirish, xorijiy davlatlarda o'qiyotgan fuqarolarni "yoshlar daftari"ga kiritish imkoni yaratiladi;*
- *uyma-uy yurib yig'ilgan ish izlovchi shaxslar haqidagi ma'lumotlarni xususiy bandlik agentliklariga muntazam va bepul taqdim etib borish amaliyoti joriy qilinadi.*

Davlat dasturida yangi O'zbekistonni barpo etishda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar rolini yanada oshirish va norma ijodkorligi faoliyatining islohotlarga uyg'unligini ta'minlash bilan bog'liq muhim vazifalar ham nazarda tutilgan.

Bu borada qonun ijodkorligi jarayoni samaradorligini oshirish, milliy qonunchilikni yangilangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida takomillashtirish, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladigan qonunlarni qabul qilish amaliyotini kengaytirish maqsadida Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi Kengashlari qo'shma qarori bilan Qonun ijodkorligi dasturi tasdiqlandi.

Dasturning bosh maqsadi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish barqarorligini ta'minlash hamda yangi O'zbekistonni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishning yaqin va o'rta istiqboldagi qonunchilik asosini rivojlantirishdan iboratdir. Negaki, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan keng ko'lamli islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi har jihatdan qonun ijodkorligi jarayoni sifatiga bevosita bog'liq.

Ma'lumki, turli sohalardagi ijtimoiy munosabatlarni tarqoq holda tartibga solish kabi amaliyot davom etishi huquqiy kolliziyalar, huquqni qo'llashda turlicha talqin qilish va murakkabliklar yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Umumiy tusga ega, amalga oshirishning aniq mexanizmi bo'lmagan qonunlar ko'pligi ijtimoiy munosabatlarni, asosan, qonunosti hujjatlari bilan tartibga solishga olib kelayotgani ham bor gap. Ayniqsa, qonunlardagi havolaki normalar ularni qo'llovchi maxsus subyektlar tomonidan turli suiiste'molchiliklarga sharoit yaratib berayotir.

Shu o'rinda qonun ijodkorligi faoliyati bo'yicha dasturdan kutilayotgan natijalar xususida ham to'xtalish zarur. Bu orqali biz qonun ijodkorligi sohasida rivojlangan mamlakatlarning qonunchilik texnikasi va huquqni qo'llash amaliyotining ilg'or tajribalarini implementatsiya qilish imkoniga ega bo'lamiz. Pirovard natijada qonunning normativ-huquqiy hujjatlar tizimidagi mavqeini yanada oshiramiz.

O'z navbatida, hukumat va ijro etuvchi boshqa organlar faoliyatining samaradorligini baholash tizimi joriy qilinadi hamda sodda va ixcham qonunchilik tizimini yaratish va to'g'ridan-to'g'ri amal qiladigan qonunlarni qabul qilish imkoniyatlari kengayadi.

Shu bilan birga, dasturda sud ishlarini yuritishda fuqarolarga qulay sharoit yaratish bo'yicha ham vazifalar belgilangan. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad sud hokimiyati mustaqilligini kuchaytirish va uning faoliyatida ochiqlikni ta'minlash orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda advokat, sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasida elektron hujjat almashinuvini yo'lga qo'yishdan iboratdir.

Ko'rinib turibdiki, oldimizda ulkan vazifalar bor. Ularni izchil amalga oshirish biz, senatorlardan ham katta mas'uliyat talab etadi.

**Narimon UMAROV,**
**Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi raisi.**

# FRAKSIYALAR HAYOTI

## O'zLiDeP

Mo'g'uliston poytaxti Ulan-Bator shahrida Osiyo siyosiy partiyalari xalqaro konferensiyasi (ICAPP) doirasida o'tkazilgan Yoshlar qanotining VII yig'ilishida O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi a'zosi **Sardor G'iyosov** ishtirok etib, mamlakatimiz parlamenti faoliyatida yoshlarning o'rni va roli mustahkamlanib borayotgani, ko'rib chiqilayotgan qonun loyihalari ular o'rtasida qizg'in muhokama qilinayotgani haqida batafsil ma'lumot berdi. Shuningdek, ushbu anjumanning ahamiyatiga to'xtalib o'tdi.

*"Bu kabi xalqaro anjumanlar turli mamlakatlarda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid siyosat va qonunchilik haqida o'zaro fikrlashish, tajriba almashishda muhim ahamiyat kasb etadi"*, dedi deputat.

## "Milliy tiklanish" DP

Yaqinda bo'lib o'tgan "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan qonun loyihasi atroflicha ko'rib chiqilgandi.

Fraksiya rahbari **Alisher Qodirov** zo'ravonlik muhitida voyaga yetgan bolaning jamiyatga salbiy ta'siri haqida o'z fikrlarini bildirdi.

*"Bolaga qanday munosabatda bo'lsak, unga qanday tarbiya bersak, shunday kelajak barpo etamiz. Bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilishga qaratilgan juda muhim qonun loyihasini birinchi o'qishda qabul qildik. Ikkinchi o'qishda ushbu hujjatning ta'sirchanligi va samaradorligini ta'minlashga qaratilgan ko'p takliflarimiz bor"*, dedi fraksiya rahbari.

## "Adolat" SDP

"Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi a'zosi **Muzaffara Abdiyeva** ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilgan maqolasida yosh avlod vakillarining telefonga qaramligi masalasiga e'tibor qaratib, "nomofobiyani XXI asrning yangi epidemiyasi", deya baholadi.

*"Nomofobiya (mobilfobiya) telefonsiz qolish qo'rquvi hisoblanadi. Davolash mumkin bo'lgan xastaliklardan ham xavotirliroq bu kasallik asr vabosi deb tan olingan"*, deb yozadi deputat.

Shuningdek, u ayrim ota-onalar smartfonlarning yoshlar salomatligiga jiddiy xavf tug'dirayotganini bila turib, bu masalaga panja orasidan qarayotganini tanqid ostiga oladi.

*"Bolalar — bizning kelajagimiz, ertamiz davomchilari hisoblanadi. Ular bilan hayotimiz obod, ko'nglimiz charog'on. Shunday ekan, bugun biz tarbiyalayotgan farzandlar kelgusida ruhiy jihatdan kimgadir qaram, loqayd, befarq kimsalar bo'lib emas, balki har tomonlama sog'lom, barkamol, Vatanimiz taraqqiyotiga hissa qo'sha oladigan avlod bo'lsin. Bu esa, eng avvalo, ota-onalar, keng jamoatchilik va sizu bizga bog'liq"*, deydi muallif maqola yakunida.

## O'zXDP

Qonun tashabbuskorlari tomonidan mulk huquqini belgilash vakolatini Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlariga berish taklif etilayotgani masalasiga O'zXDP fraksiya a'zosi **Ulug'bek Vafoyev** o'z munosabatini bildirdi.

*"Minglab, balki bir necha o'n minglab fuqarolarning mulk huquqlarini e'tirof etish bo'yicha qarorlar viloyat Kengashlari tomonidan emas, balki tuman Kengashlari deputatlari tomonidan chiqarilsa, to'g'riroq bo'lardi. Sababi, tuman Kengashi deputatlari ushbu hududdagi holatni, jarayonni yaxshi biladi, bundan tashqari, mulk huquqi e'tirof etilishiga oid qarorlar qabul qilinishi muddati birmuncha qisqarardi"*, dedi deputat.

## O'zbekiston Ekologik partiyasi

O'tgan haftada bo'lib o'tgan Ekopartiya fraksiyasi yig'ilishida "O'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkalari hamda ularda qurilgan bino va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida"gi qonun loyihasi ko'rib chiqilgandi.

Fraksiya a'zosi **Leyli Seytova** qonun loyihasi bilan taqdim qilinayotgan yengilliklar aholining keng qatlami uchun muhim ahamiyat kasb etishini aytgan holda, joylarda uchrab turgan ayrim masalalarga e'tibor qaratdi.

*"Saylovchilar bilan uchrashuvlarda hududlarga borganimizda ba'zan guvohi bo'lamiz: tadbirkorlar bo'sh turgan yer maydonini "stadion quraman" deb oladi, lekin vaqt o'tib, uy-joy qurib yuborishadi. Bu kabi holatlar ham o'zboshimchalik bilan o'zlashtirilgan yer maydonlari sifatida e'tirof etilishi masalasini o'ylab ko'rish kerak"*, dedi deputat.

# GULISTONLIK TALABALAR SENAT FAOLIYATI BILAN TANISHDI

***Guliston davlat pedagogika institutining bir guruh talabalari mamlakatimiz parlamenti yuqori palatasi faoliyati bilan tanishdi.***

## Uchrashuv

Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi a'zosi Anvar To'ychiyev talabalarga Oliy Majlis Senati faoliyati haqida batafsil ma'lumot berdi. Ayni chog'da qo'mita tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar haqida to'xtalib o'tdi.

Qayd etilganidek, qo'mita tomonidan 2023-yilda xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar, moliya tuzilmalari va biznes vakillari bilan 97 ta uchrashuv tashkil etilib, o'zaro amaliy hamkorlik istiqbollari muhokama qilingan. Senat rahbariyati va a'zolari tomonidan 60 ga yaqin mamlakatlar vakillari bilan parlamentlararo aloqalarni mustahkamlash hamda savdo-iqtisodiy, investitsiya va madaniy-gumanitar sohalarda qo'shma loyihalarni amalga oshirish bo'yicha muzokaralar olib borilgan. Shu bilan birga, 12 ta qonun ko'rib chiqilgan.

Senator uchrashuv davomida ta'lim sohasidagi islohotlar, yoshlarni kasb-hunarga o'rgatish, bandligini ta'minlash, jamiyat hayotidagi ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, turli sohalarda o'z qobiliyati va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoit yaratish bo'yicha qo'mita tomonidan olib borilayotgan ishlar xususida ham so'zlab berdi.

**"Xalq so'zi".**

Adabiy rishtalar

# VAQTGA QO'YILGAN HAYKAL




**O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning "Vaqt haykali" kitobi Bokuda ozarbayjon tilida chop etildi.**

"Vaqtga haykal qo'ymoq payti ham yetdi!" Ushbu satr shoirning 1984-yili yozilgan "Saksoninchi yillar" dostonidan olingan. Vaqt degan ulug' ne'matni qadrlash, uni yelga sovurishdan saqlanmoq, asl haqiqatlarga bag'ishlamoq — vaqtga haykal qo'yish deganda shoir ana shu teran mohiyatni nazarda tutadi.

***Hayot!***
***Ko'zlaringni mendan yashirma!***
***Hayot!***
***Dardlarimga o'zing ber hayot!***
***Sen o'zing dunyoda eng buyuk baxtsan,***
***Sen o'zing dunyoda eng buyuk faryod.***

Ijodkor ana shu eng buyuk baxt va eng buyuk faryod bo'lgan hayot falsafasini o'ziga xos talqin etadi. Uningcha, hayot — hazrat Navoiy kuylagan azob, ustoz G'afur G'ulom e'zozlagan ezgu dard. Zero, haqiqiy she'r — ana shu azob va ezgu dard hosilasi. Vaqtga ijodkor qo'yajak haykal "Foniy hasrat emas — Oliy Orzudan, O'tkinchi g'am emas — Yuksak Ishonchdan" qurilmog'i zarur. "Tug'yondan, vijdondan, giyohdan, tong-dan, Shabnamdan, qasamdan, sevgi, quvonchdan" bunyod etilmog'i kerak bu haykal.

Haqiqiy shoir faqat o'zinigina o'ylay olmaydi. Uning yuragini millat dardi, bashariyat dardi o'rtaydi. U hazrat Navoiy bo'lib, Astrobodga surgun etiladi, Sobir Termiziy bo'lib suvga g'arq qilinadi. Zamondan quyun yanglig' o'tib, "Boburnoma" bo'lib bitiladi. Dunyoda kechayotgan urush-taloshlar, zulm-o'ldirishlar, talon-torojlar qalbini mudom iztirobga soladi, ruhini g'am dengiziga cho'ktiradi. Afg'oniston qumlarida askarlar yiqilganda U ham yozuv stolida so'zsiz yaralanadi. Jenevadagi tinchlik shartnomalari cho'zilganda, uni tahlikaga solgan muddatlar ham uzayadi. Nikaraguada, Bayrutda yuz bergan vayrongarchilik va qotilliklardan daftariga qonlar sachraydi, samolarda jon bergan Muin Bsisu hasrati uning ham ko'ngliga mung soladi. Ona ko'zyoshlari timsolida dunyo ko'zyoshlarining mohiyatini anglaydi. Inson dard bilan buyuk ekanini his etadi. Butun dunyo vijdonlarini birlashmoqqa chorlaydi.

Doston mana bunday xulosalanadi:

***Mening ko'z oldimda Vaqt turar faqat —***
***Butun Insoniyat shaklidagi Vaqt.***

Vaqtni insoniyat shaklida tasavvur etish, his etish uchun shoirona yuksak tafakkur va ijodiy taxayyul, tongday toza qalb zarur, yurakda cho'ng dard bo'lmog'i kerak. Sirojiddin Sayyid ana shunday zalvarni yelkasiga olgan ijodkor. Shu bois turli millat shoirlari uning asarlarini o'z tillariga tarjima qilmoqqa ehtiyoj sezayotir. She'rlari qardosh o'lkalarda ham sevib o'qilmoqda.

"Vaqt haykali" kitobini ozarbayjon tiliga mashhur "O'zbek kelayotir!" she'ri muallifi Akif Bag'ir tarjima qilgan. Bu nashr faqat Sirojiddin Sayyidninggina emas, o'zbek she'riyatining ham yutug'i, o'zbek — ozarbayjon adabiy aloqalari muttasil rivojlanayotgani dalili. Shoirning eng sara she'rlari va dostonlari o'rin olgan to'plam she'riyat muhiblari ko'nglidan chuqur joy olishiga ishonamiz.

**Nurboy JABBOROV,**
**filologiya fanlari doktori, professor.**

REKLAMA

# INVESTOR VA QURILISH TASHKILOTLARI RAHBARLARI DIQQATIGA!

*Prezidentimizning 2019-yil 29-maydagi 4343-sonli qaroriga muvofiq, shuningdek, ichki ishlar organlari xodimlari va harbiy xizmatchilarning zamonaviy talab darajasida hamda arzon uy-joylar qurish va berish hisobidan ularni rag'batlantirish, ijtimoiy himoya qilish darajasini oshirish, shuningdek, davlatimiz rahbarining 2022-yil 8-fevraldagi 118-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-oktabrdagi 865-sonli qarori hamda Toshkent shahar hokimining 2024-yil 28-fevraldagi 133-14-0-Q/24-conli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Mirzo Ulug'bek tumani, 4-Qorasuv mavzesi, 11-uy yonida joylashgan 2300 m2 (0,23 gektar) bo'lgan bo'sh yer maydonida Toshkent shahar ichki ishlar organlari xodimlari uchun ko'p qavatli turarjoy binolarini "tayyor holda topshirish" shartlari bilan davlat-xususiy sheriklik asosida qurish bo'yicha investorlar va qurilish tashkilotlari mutasaddilarini hamkorlikka taklif etamiz.*

**Tanlovda qatnashish istagida bo'lgan tashkilotlar vakillaridan quyidagilar talab qilinadi:**

1. Investor yoki qurilish tashkilotining nizomi va guvohnomasi;
2. Investor yoki qurilish tashkilotining tashkiliy tuzilishi bo'yicha ma'lumot;
3. Investor yoki qurilish tashkilotining oxirgi uch yillik (2021, 2022 va 2023-yillar) moliyaviy holati to'g'risida ma'lumot (oxirgi uch yillik "F-1" va "F-2" hisobotlari, pudrat shartnomalari, obyektni foydalanishga topshirish bo'yicha nusxalarini ilova qilishi shart);
4. Xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan investor yoki qurilish tashkilotining qarzdorlik mavjud emasligi to'g'risida ma'lumotnoma;
5. Soliq inspeksiyasi tomonidan investor yoki qurilish tashkilotining qarzdorligi mavjud yoki mavjud emasligi to'g'risida ma'lumotnoma hamda ishchi xodimlari to'g'risida ma'lumot (soliq hisobotida ko'rsatilgan ishchilar soni "milliy mehnat.uz" bazasiga to'g'ri kelishini isbotlovchi hujjatlarni ilova qilish shart);
6. Investor yoki qurilish tashkilotining moddiy-texnika bazasi hamda qurilish texnikasi va kichik qurilish mexanizmlari to'g'risida ma'lumot (texnik pasportlarning nusxalari bo'lishi shart);
7. Qurilish rejalashtirilgan hududga loyiha taklifi (bosh reja, fasad, qavatlar rejasi, 3D ko'rinishda);
8. Qurilish ishlarini olib borish, uning muddatlari va shartlari ko'rsatilgan tarmoq rejasi (tasdiqlangan ko'rinishda);
9. Qurilishi rejalashtirilayotgan ko'p qavatli turarjoy binolaridagi xonadonlarning eng kamida 50 foizini ichki ishlar organlari xodimlari va harbiy xizmatchilari uchun imtiyozli arzonlashtirilgan narxlarda sotish bo'yicha hisobot (tijorat taklifi);
10. Loyihalanayotgan ko'p qavatli turarjoy binosi joylashgan hududda qo'shimcha ravishda alohida transformator, avtomobillar turarjoyi, chiqindi tashlash joyi hamda bolalar maydonchasi bo'lishi shart;
11. Taklif uchun loyihalanayotgan ko'p qavatli turarjoy binosining qavatlarini yer maydoni joylashgan tuman bosh arxitektori bilan maslahatlashgan holda kelishish lozim;
12. Mazkur shartlar bo'yicha hamkorlik qilish istagidagi investor yoki qurilish tashkilotlari 2024-yilning 5-aprel kuniga qadar tanlov yuzasidan qo'shimcha ma'lumot olish uchun quyidagi manzilga murojaat qilishlari mumkin:

**Toshkent shahri, Mirobod tumani,**
**Sodiq Azimov ko'chasi, 87-uy.**
**Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi.**
**Telefon: 71-206-44-08.**

**Qurilishi rejalashtirilayotgan obyekt manzili:**

Toshkent shahar IIBB tasarrufidagi Mirzo Ulug'bek tumani, 4-Qorasuv mavzesi, 11-uy yonida joylashgan 2300 $m^2$ (0,23 gektar) bo'lgan bo'sh yer maydoni.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 142. 15 736 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir F. Bozorov.
Musahhih S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'zA yakuni — 21.15 Topshirildi — 23.05 1 2 3 4 5 6